



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 77-81 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARINI KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISH YO'LLARI



Mansurov Ozod Ilxomjonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada mamlakatimiz tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: depozit, devalvatsiya zaxirasi, kredit, regulyativ kapital, birinchi darajali kapital, kapitallashish darajasi, kapitalning yetarliligi, moliyaviy barqarorlik, likvidlilik, likvidli aktivlar, qayta moliyalash stavkasi.

Ayni vaqtda, mamlakatimiz bank tizimida olib borilayotgan tizimli tadbirlar, shu jumladan, tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapitallashuv darajasi va likvidlikni oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuksak baholanmoqda. Sohada olib borilgan chora-tadbirlar natijasida bank tizimida erishilgan ko'rsatkichlar nafaqat xalqaro umumqabul qilingan me'yorlarga javob beradi, balki ayrim yo'nalishlari bo'yicha undan ham yuksak baholarga sazovor bo'lmoqda.

Mamlakatimizda yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarurligiga katta e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, banklar kapitalida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, banklarni xususiylashtirish orqali tizim sektorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga hamda kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladigan dadil qadamlar tashlanmoqda.

Ayni paytda xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqori darajaga chiqishini ta'minlash maqsadida, 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni, tijorat banklarida kapitallashuv jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlari tijorat banklarining ustav kapitalini oshirishga va shu orqali ularning likvidliligi, moliyaviy barqarorligini mustahkamlab borishga qaratilganidir. Ushbu farmon va qarorlar talablari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalardan biri bank tizimini xalqaro talablarga moslashtirish va uni yanada takomillashtirishdan iborat.

Mamlakatimiz bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham respublikamiz banklarining resurs bazasini mustahkamlashga, banklarni kapitallashuv darajasini oshirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan. Jumladan, "2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so'mgacha yetkazish masalasi" va "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish, depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash vazifalari" belgilab berilgan. Mamlakatimizda "2020–2025 yillarga mo'ljallangan respublikaning bank tizimini isloh qilish strategiyasida oltita bankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish" nazarda tutilgan.


Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi, sohalarning taraqqiy etishi natijasida mijozlarni bankning moliyaviy xizmatlariga bo'lgan talabi oshib boradi. Banklar ushbu talablarni qondirish maqsadida o'z mablag'laridan hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishadi. O'z mablag'lari miqdorini doimiy ravishda kengaytirish imkoniyati cheklanganligi bois, banklar uchun asosiy moliyaviy resurs manbasi bo'lgan jalb qilingan mablag'laridan foydalanishadi. Hozirgi kunda banklarning raqobatbardoshlik darajasi milliy chegaralardan o'tib global darajaga chiqqan bir paytda banklar resurs bazasini mustahkamligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi avvalambor, unda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bilan chambarchas bog'liq. Banklarning resurs bazasi kengayib, mustahkamlanmoqda, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmoqda. Natijada o'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi.

Tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2022 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 18,8 foizga oshib, 83,4 trln. so'mni tashkil qildi¹.

Respublikamiz bank tizimida kapital yetarliligi va likvidlik darajasining yuqoriligi, aktivlari sifati va salohiyatining oshishi, o'z navbatida, iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantirish hamda chuqur tarkibiy o'zgartirishlar va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga mustahkam zamin bo'lmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi, www.cbu.uz.



1-rasm. Tijorat banklari jami kapitali² (mlrd. so'm, yil yakuniga).

Ushbu ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bank tizimi jami kapitali yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2013 yilda 6500 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022 yil yakuniga 83413 mlrd. so'mga yetgan. Ya'ni oxirgi o'n yil ichida bank kapitali miqdori 13 baravarga oshganligini ko'rishimiz mumkin, bu esa tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini oshayotganligini bildiradi.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari kapitalining oshib borishi banklarni moliyaviy barqarorligini oshishiga va o'z navbatida bank majburiyatlarini ta'minlash imkoniyatlarini oshib borishiga xizmat qiladi.

Buni biz bank tizimi misolida kapitali tarkibi va yetarlilik ko'rsatkichlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Bank tizimi bo'yicha kapital tarkibi va yetarlilik ko'rsatkichlari³

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2022 yil.		01.01.2023 yil	
	mlrd.so'm	ulushi, foizda	mlrd,so'm	ulushi, foizda
I darajali kapital	58 324	83,5%	67 793	81,3%
Asosiy kapital	58 429	83,2%	67 598	81,0%
Qo'shimcha kapital	195	0,3%	195	0,2%
II darajali kapital	11 567	16,5%	15 620	18,7%
Jami regulyativ kapital	70 191	100%	83 413	100%
<i>Kapital monandlik darajasi</i>	17,5%		17,8%	
<i>I darajali kapital monandlik darajasi</i>	14,6 %		14,5%	

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi, www.cbu.uz.

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi, www.cbu.uz.

Ushbu jadvalda kapitali tarkibi va yetarliligi ko'rsatkichi keltirilgan bo'lib, u Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, Markaziy bankning "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi talablari bo'yicha kapital yetarliligi ko'rsatkichi 13 foizdan kam bo'lmasligi belgilangan. Tijorat banklari riskli aktivlar hajmini oshirishlari uchun kapital yetarliligini belgilangan me'yorlar darajasida ta'minlashi va oshirib borishi lozim. Chunki, bank kapitali yetarliligi ko'rsatkichi jami bank kapitalini tavakkalchilikka asoslangan aktivlar umumiy summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Xususan, 2023 yilning dastlabki yarim yilligida bank aktivlarining o'sish sur'ati 2022 yilning mos davriga nisbatan 8 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, substandart va undan quyi tasniflangan muammoli kreditlar ulushi 2023 yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan⁴.

Bank sektori bo'yicha kapital monandlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarida kuzatilgan pasayish tendensiyalari bank tizimining turli ehtimoliy shoklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bardoshlilik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

2023 yilning 1 iyul holatiga regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, banklarning likvidlilik holatini aks ettiruvchi likvidlilikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsientlari ko'rsatkichlari pasaydi⁵.

2023 yilning I yarim yilligida O'zbekiston bank tizimida kapital zaxiralarining o'rnatilgan kapital talablaridan yuqori darajada shakllanishida davom etdi. Bu esa, makroiqtisodiy hamda tashqi geosiyosiy xatarlar sharoitida ham tijorat banklari uchun yetarli darajada ehtimoliy zararlarni qoplash imkoniyatini taqdim etmoqda.

2023 yilning 1 iyul holatiga banklarning jami regulyativ kapitali o'tgan yilning mos holatiga nisbatan 14 foizga oshib, 88,7 trln so'mga yetdi. Bunda, kapitalning qariyb 85 foizini yuqori sifatli hisoblangan I darajali kapital tashkil qilmoqda⁶.

2023 yil I yarim yilligida moliyaviy sharoitlar biroz qat'iylashishiga qaramasdan, O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlik saqlanib qolindi. Bunda, pul bozorida turg'unlik, xorijiy valyuta bozoridagi yuqori o'zgaruvchanlik va bank sektoridagi noaniqliklarning ortishi kuzatildi. Ushbu davrda kapital monandlilik hamda likvidlilik ko'rsatkichlarida pasayish kuzatilgan bo'lsada, mazkur ko'rsatkichlar o'rnatilgan minimal talablardan yuqori bo'ldi. Shuningdek, bank tizimida daromadlilik ko'rsatkichlari oshdi.

Bank tizimida yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining pasayish tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi past darajani tashkil etib, kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash maqsadida yaratilgan zaxiralar bilan ta'minlanganlik darajasi oshdi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mustahkam resurs bazasiga ega bo'lgan banklarga o'z likvidlili va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, mijozlarning ishonchini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Banklar resurs bazasini mustahkamlashda asosiy e'tibor bank

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi, www.cbu.uz.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi, www.cbu.uz.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi, www.cbu.uz.

balansi passividagi mablag'lar manbalariga qaratiladi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- bank kapitali tarkibida ustav kapitalining ulushini doimiy ravishda oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ustav kapitali bankning taqsimlanmagan foydasi bilan birga bank kapitalning eng barqaror qismi hisoblanadi;

- tijorat banklarning jami depozitlari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlar ulushini oshirish uchun yuridik shaxslarning muddatli va jamg'arma depozitlariga ularning muddati va miqdoridan kelib chiqqan holda differensial foiz belgilash maqsadga muvofiqdir;

- tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash maqsadida inflyatsion targetlash rejimini hisobga olgan holda, barqaror resurs jalb qilishni kengaytirish hamda kelgusida ushbu mijozlarning yana bankka depozit qo'yishini rag'batlantirishda banklar tomonidan doimiy tarzda yangi, zamonaviy va jozibador uzoq muddatli depozit xizmatlarni joriy etib borishlari lozim;

- tijorat banklari regulyativ kapitalning makrodarajada yetarliligini ta'minlash uchun, birinchidan, regulyativ kapitalning o'sish sur'ati bilan nominal yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim; ikkinchidan, tijorat banklari regulyativ kapitalning miqdorini bir vaqtning o'zida ham yangi aksiyalar chiqarish yo'li bilan, ham taqsimlanmagan foydani ustav kapitaliga yo'naltirish yo'li bilan ko'paytirish zarur; uchinchidan, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan yangi oddiy aksiyalarning investitsion jozibadorligini ta'minlash maqsadida investorlarning banklarning aksiyalariga qilgan investitsiyalaridan olgan daromadlari imtiyozlar berish lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar banklar faoliyatiga to'liq joriy etilishi birinchidan, ular faoliyatining samaradorligini oshirsa, ikkinchidan, tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari uchun iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. – www.lex.uz
2. 2020 yil 12 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
3. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi – www.lex.uz
4. Lavrushin O.I., Azizov U.U., Karaliev T.M Bankovskoe delo. Pod redaksii O.I. Lavrushina M.KRUNOS. 2019 g. st. 224
5. Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank ishi. Darslik. -T.: TMI, Iqtisod-Moliya, 2019 yil, 145 b.
6. O'zR Markaziy bankining 2022 yil yarimyillik uchun Moliyaviy barqarorlik sharhi, 27-bet.
7. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
8. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
9. www.stat.uz.- Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy sayti

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

